

BO'RIYEV Jaloliddin Aliqulovich
O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
Arab tili va adabiyoti al-Azhar
kafedrası dotsenti v.b. PhD
e-mail: jburiyev1977@mail.ru

MA'RIFAT – TINCHLIK VA TARAQQIYOT KALITI

ПРОСВЕЩЕНИЕ – КЛЮЧ К МИРУ И РАЗВИТИЮ

EDUCATION IS THE KEY TO PEACE AND PROGRESS

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) Bosh Assambleyasining 80-yubiley sessiyasida so'zlagan nutqi hamda ma'rifatning inson hayoti va jamiyat taraqqiyotidagi o'rni yoritilgan. Unda ma'rifat tinchlikni mustahkamlovchi, jaholatni bartarafetuvchi asosiy omil sifatida tahlil qilinadi. Shuningdek, yosh avlodni bilimli va ma'naviyatli etib tarbiyalash mamlakatning barqaror rivojlanishi va farovon kelajagini ta'minlashdagi ahamiyati ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: ma'rifat, tinchlik, taraqqiyot, jaholat, ta'lim, yosh avlod, ma'naviyat, ilm, madaniyat, farovonlik.

Аннотация: В данной статье освещаются выступление Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева на 80-й юбилейной сессии Генеральной Ассамблеи Организации Объединённых Наций (ООН), а также роль просвещения в жизни человека и развитии общества. Особое внимание уделено значению воспитания молодёжи как образованного и духовно богатого поколения, обеспечивающего устойчивое развитие страны и её процветающее будущее.

Ключевые слова: просвещение, мир, развитие, невежество, образование, молодёжь, духовность, знание, культура, благополучие.

Abstract: This article highlights the speech delivered by the President of the Republic of Uzbekistan, Shavkat Mirziyoyev, at the 80th anniversary session of the United Nations General Assembly, as well as the role of enlightenment in human life and the development of society. Special attention is given to the importance of educating the younger generation to become knowledgeable and spiritually rich individuals who ensure the sustainable development and prosperous future of the country.

Key words: enlightenment, peace, progress, ignorance, education, youth, morality, knowledge, culture, prosperity.

KIRISH

2025-yil sentabr oyida Nyu-York shahrida bo'lib o'tgan Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) Bosh Assambleyasining 80-yubiley sessiyasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev muhim nutq so'zladi [1:1]. Bu nutq mamlakatimizning xalqaro maydondagi pozitsiyasi va global hamda mintaqaviy muammolarga nisbatan yondashuvini yaqqol namoyon etdi. Prezident o'z chiqishida shiddat bilan o'zgarayotgan va xavotirli geosiyosiy voqelik sharoitida BMTning rolini mustahkamlash va bir qator dolzarb masalalarni hal etish bo'yicha aniq taklif va tashabbuslarni ilgari surdi.

Insoniyat tarixiga nazar tashlasak, har qanday yuksalish va taraqqiyotning markazida ma'rifat turganini ko'ramiz. Ma'rifat – bu nafaqat bilim va savodxonlik, balki insonning dunyoqarashi, tafakkuri, axloqi va iymonini shakllantiruvchi buyuk kuchdir. Zero, ma'rifatli jamiyatda jaholat, adovat va zo'ravonlikka o'rin qolmaydi. Shu bois ham ajdodlarimiz bejizga “Ma'rifat – tinchlik va taraqqiyot kaliti” deb aytmaganlar. Ma'rifat insonni zulmatdan nurga olib chiqadi. U insonni o'zligini anglashga, boshqalarni hurmat qilishga o'rgatadi. Ma'rifatli kishi hech qachon urush, adovat yoki jaholat yo'lini tanlamaydi. U tinchlikning, totuvlikning va taraqqiyotning tarafdoridir. Shu bois har bir xalq, har bir millat farovonlik sari intilar ekan, avvalo ma'rifatni ustuvor qadriyat sifatida e'tirof etadi.

ASOSIY QISM

Yangi O'zbekiston bugungi kunda tinchlik, do'stlik va ma'rifat tamoyillarini o'z tashqi va ichki siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida belgiladi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning nufuzli xalqaro minbarlardan turib ilgari surayotgan tashabbuslari butun dunyo hamjamiyati e'tiborini tortmoqda va mamlakatimizning yangicha qiyofasini namoyish etmoqda. Bugungi globallashuv davrida har bir xalqning taraqqiyoti uning ma'rifat darajasiga bog'liq. Zamonaviy texnologiyalar, fan, tibbiyot, iqtisodiyot – barchasining ildizi bilimda. Ma'rifatli avlodgina

Vatanini yuksaltira oladi, uni taraqqiyot yo'lida olib bora oladi. Shu sababli yosh avlodni ilmga, kitob o'qishga, tafakkur qilishga o'rgatish – eng muhim vazifadir.

Davlatimiz rahbari Birlashgan Millatlar Tashkilotining (BMT) yuksak minbaridan turib: “Yangi O'zbekiston barcha davlatlar bilan o'zaro hamjihatlik, ochiq muloqot va yaqin sheriklik tarafdoridir. Biz xalqlar, madaniyatlar va sivilizatsiyalar o'rtasidagi muloqotni mustahkamlash, umumbashariy maqsadlarni ro'yobga chiqarish yo'lida o'z hissamizni qo'shishga doim tayyormiz”, [1:1] dedi. Prezidentimiz ertangi kunimiz, dunyoning taqdiri va farovonligi o'sib kelayotgan yosh avlod qo'lida ekani, farzandlarimizning qalbi va ongiga tinchlik, gumanizm hamda do'stlik, o'zaro ishonch va hurmat kabi olijanob g'oyalarni singdirish dolzarb vazifalar sirasiga kirishini ta'kidlab, bu borada jahon yoshlarining tinchlik sari harakatini ta'sis etish va uning qarorgohini O'zbekistonda joylashtirish taklifini ilgari surdi.

Prezidentimiz tomonidan yoshlar masalasiga alohida e'tibor qaratilishi ham chuqur ramziy ma'noga ega. Kelajak avlod qalbida tinchlik, gumanizm, do'stlik, o'zaro ishonch va hurmat kabi olijanob g'oyalarni singdirish – bugunning eng dolzarb vazifasidir. Shu maqsadda ilgari surilgan Jahon yoshlarining tinchlik sari harakatini ta'sis etish va uning qarorgohini O'zbekistonda joylashtirish taklifi, mamlakatimizning yoshlarga bo'lgan yuksak ishonchini va ularning global miqyosdagi o'rnini qadrlashini yaqqol ko'rsatadi [2:12].

Ajdodlarimiz “Ilm – nur, jaholat – zulmat” deganlari bejiz emas. Zero, ma'rifatli inson avvalo o'zini, so'ngra atrofidagi olamni anglaydi. U yaxshilik urug'ini sochadi, tinchlikni asraydi, mehr va insof bilan yashaydi. Ma'rifatli jamiyatda fikrlar to'qnashmaydi, balki bir-birini to'ldiradi; insonlar o'rtasida na adovat, na g'araz bo'ladi. Tinchlik – bu yurtning eng bebaho boyligi. Uni saqlab qolish uchun qurol emas, qalbda ma'rifat qudrati bo'lishi lozim. Chunki ma'rifatli inson hech qachon urush yo'lini tanlamaydi, u har doim muloqot, bag'rikenglik va hamjihatlik tarafdori bo'ladi. Ma'rifat insonni tinchlikka, tinchlik esa taraqqiyotga eltadi.

Bugungi kunda dunyo yuksalish poygasida. Kim ilmga, ma'rifatga tayanadi, o'sha millat taraqqiyot sari olg'a intiladi. Ma'rifatli avlod

– yurtning eng katta boyligi, kelajagining poydevoridir. Shuning uchun har bir o'quvchi, har bir yosh o'z oldiga bitta maqsad qo'ymog'i kerak: o'qish, izlanish, o'z ustida ishlash va Vatan taraqqiyoti uchun xizmat qilish.

Inson qalbida ma'rifat nuri porlagan yurtda tinchlik abadiy bo'ladi. Shunday ekan, har birimiz ma'rifatni qadrlaylik, uni hayotimizga yo'ldosh qilaylik. Chunki ma'rifat – bu nur, bu haqiqat, bu tinchlik va taraqqiyot kaliti.

Buyuk ajdodlarimiz, mutafakkir allomalar Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiyning boy ma'naviy va ilmiy merosining alohida taqdimotini BMTda o'tkazish rejalashtirilgani quvonarli xabar bo'ldi. Islom ma'rifati va sivilizatsiyasi tarixida Imom Buxoriy, Imom Termiziy va Imom Moturidiy alohida o'rin tutadi. Ular o'z asarlari va ilmiy merosi orqali insoniyatni bag'rikenglik, adolat, insonparvarlik va tinchlik g'oyalariga da'vat qilgan. Imom Buxoriyning “Sahihi Buxoriy” asari islom dinining eng ishonchli manbalaridan [1:2].

Bu zotlar islom olamining ma'rifiy ustunlari bo'lib, o'z asarlari orqali insoniyatni bag'rikenglik, adolat, insonparvarlik va tinchlik g'oyalariga chorlaganlar. Imom Buxoriyning “Sahihi Buxoriy” asarida jamiyatdagi adolat, inson sha'ni va qadrini himoya qilish, muhtojlarga yordam berish kabi g'oyalar mujassam. Imom Termiziyning “Ash shamoyil annabaviya” asari mehr-shafqat, kamtarlik va bag'rikenglikni targ'ib qilib, turli millat va din vakillari o'rtasidagi o'zaro ishonchni mustahkamlaydi. Imom Moturidiy o'zining “Ta'vilot ahlal sunna” asarida din va aql uyg'unligi, insonning erki va mas'uliyati kabi tamoyillarni ilgari surgan [1:2]. Uning ta'limoti ma'rifat orqali barqarorlik va hamjihatlikka erishish mumkinligini uqtiradi.

MUHOKAMA

Bu buyuk allomalarning merosi nafaqat islom olami, balki butun insoniyat uchun foydali ma'naviy xazinadir. Shu bois, ularning boy ilmiy va ma'naviy merosini jahon hamjamiyatiga yetkazish, tinchlik va ma'rifat sari da'vat sifatida targ'ib qilish ulkan ahamiyatga ega. Ushbu ulug'vor merosni xalqaro maydonda keng targ'ib qilish O'zbekistonning tinchlikparvar siyosatini va “Islom ma'rifati” g'oyasini dunyoga yoyishdagi sa'y-harakatlarini yorqin ifodalaydi. Yaqin oylarda yurtimizda Islom

sivilizatsiyasi markazining ochilishi ham ushbu ma'rifiy diplomatiyaning amaliy natijasi bo'ladi.

Shuningdek, yuqori minbarda Markaziy Osiyoda Global aksiterror strategiyasini bajarish bo'yicha samarali ishlar qilinayotgani ta'kidlanib, BMTning Terrorizmga qarshi kurash boshqarmasi bilan hamkorlikda Reabilitatsiya va qayta integratsiya masalalari bo'yicha mintaqaviy kengashni Xalqaro kompetensiyalar markaziga aylantirish taklif etildi. Bu tuzilma muammoli hududlardan qaytarilgan shaxslarni tinch hayotga moslashtirish bo'yicha tajriba almashish uchun muhim platforma bo'lib xizmat qilishi, bundan tashqari, mamlakatimiz Terrorizmga qarshi kurash boshqarmasining mintaqaviy ofisini O'zbekistonda ochish uchun zarur sharoit yaratishga tayyor ekani bayon qilindi. Sessiyada global xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash, barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish, tashkilot tizimi va xalqaro moliya arxitekturasini isloh qilish, iqlim o'zgarishi oqibatlarini va boshqa zamonaviy xatarlarga qarshi kurashishning dolzarb masalalari ko'rib chiqildi.

Yangi O'zbekiston tajribasida terrorizm va ekstremizmga qarshi kurash sohasida insonparvar yondashuv ustuvor ahamiyat kasb etadi. Bu siyosiy va ijtimoiy-huquqiy yo'nalish faqat kuch ishlatish, jazo choralarini ko'rish yoki huquqiy tartib-taomillar bilan cheklanib qolmaydi. Aksincha, u keng qamrovli, tizimli va kompleks chora-tadbirlar asosida amalga oshiriladi.

Ma'naviy-ma'rifiy tarbiya: Diniy sof ta'limotni buzib ko'rsatuvchi radikal g'oyalarga qarshi mafkuraviy immunitet shakllantirish, islom ma'rifati, bag'rikenglik va tinchlik g'oyalarini ustun qo'yish [3:2].

Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash: Muammoli hududlardan qaytarilgan shaxslarni jamiyatga qayta moslashtirish, ularning oilaviy va psixologik holatiga jiddiy e'tibor berish, reabilitatsiya jarayonida jamoatchilik va mahalla tizimini faol jalb qilish.

Iqtisodiy imkoniyatlar yaratish: Aholini ish bilan ta'minlash, kasb-hunarga o'qitish, kichik biznesga jalb qilish orqali radikal muhit ta'siridan chiqqanlar uchun yangi imkoniyatlar eshiklarini ochish.

Shuningdek, Prezident o'z nutqida mamlakat ichida olib borilayotgan demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy Yangi O'zbekistonni barpo etishga qaratilgan islohotlarga ham to'xtalib o'tdi. Inson qadri va kambag'allikni qisqartirish:

Asosiy maqsad har bir fuqaroning hayotini tubdan o'zgartirish, inson qadri va farovonligini oshirish ekanligi urg'ulandi. So'nggi yillarda kambag'allik darajasining keskin qisqartirilgani (35 foizdan 6,6 foizgacha) islohotlarning amaliy natijasi sifatida keltirildi [4:16].

Kambag'allikka qarshi kurash va rivojlanishning asosi sifatida ta'lim va ilm-fan sohasini o'zgartirish, innovatsion tarmoqlar va «yashil» energetikani rivojlantirish muhimligi qayd etildi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Yangi O'zbekistonning izchil siyosati nafaqat mintaqaviy barqarorlikni ta'minlashga, balki global xavfsizlik va ma'naviy taraqqiyotga ham munosib hissa qo'shmoqda. Bu siyosatning zamirida ma'rifat, bag'rikenglik va insonparvarlik yotadi, bu esa uning xalqaro hamjamiyat tomonidan munosib baholanishiga asos bo'lmoqda.

O'zbekiston Prezidentining BMTdagi nutqi global va mintaqaviy muammolarga kompleks yondashuvni namoyish etdi. Unda BMTni isloh qilish, mintaqaviy hamkorlikni chuqurlashtirish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash va gumanitar inqirozlarni hal etishga qaratilgan aniq takliflar o'z ifodasini topdi. Bu tashabbuslar Yangi O'zbekistonning xalqaro munosabatlardagi ochiqlik, konstruktiv muloqot va yaqin sheriklik tamoyillariga sodiqligini yana bir bor tasdiqladi.

MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Joniyev M. Tinchlik, do'stlik va ma'rifat sari // Yangi O'zbekiston, 2025. 4-oktabr. – № 204 (1530).
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеясининг 80-сессиясидаги нутқи // <https://president.uz/uz/lists/view/8525>. Murojaat sanasi: 18.10.2025.
3. O'zbekiston va BMT keng ko'lamli sheriklikni kengaytiradi // <https://yuz.uz/uz/news/uzbekistan-i-oon-budut-rasshiryat-polnomasshtabnoe-partnerstvo>. Murojaat sanasi: 18.10.2025.
4. Президент Шавкат Мирзиёев мамлакатимиздаги янгиланишларга алоҳида тўхталди // @Press_Secretary_Uz. 24.09.2025.
5. O'zbekiston Prezidentining AQSHga tashrifi yakunlandi // <https://president.uz/uz/lists/view/8538>. Murojaat sanasi: 18.10.2025.